

"TYUTOR VA TALABA " sayohati

QSXET fakultetida "TYUTOR VA TALABA" an'anasi yo'lga qo'yilgan. Bu an'anaga muvofiq barcha talabalarga doimiy ravishda kerakli tavsiyalar, yo'nalishlar berib boriladi. "Elektr energetika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha 1-bosqich talabalari hamda tyutor D.Xudoynazarova boshchiligida Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan "Zangiota" ziyoratgohiga tashrif buyurdi. U yer talabalarga juda katta taassurot qoldirdi. Tashrif davomida talabalar Markaziy Osiyo mintaqasida IX-XII asrlardan yuz bergan birinchi ilmiy madaniy yuksalish, ya'ni Sharq uyg'onish davrining namoyandasi, o'z zamonasida hikmat va ma'naviyat, din va tasavvuf rivojiga katta hissa qo'shgan mutasavvuf va avliyo bobolarimizdan biri bo'lgan Zangiota asil ismlari Oyxo'ja ibn Toshxo'ja haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni bilib oldi. Talabalarga bu ziyorat juda yoqdi, hamda tyutorlaridan minnatdorchilik bildirgan holda qaytishdi.

